TALABALARDA MA'NAVIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING MUXIM XUSUSIYATLARI

Abdullaeva Sohibaxon Ahmadalievna
Toshkent davlat agrar universiteti psixologi

ANNOTATSIYA: Bugungi ta'lim tizimining yangilanish jarayonlari davrida talabalarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishning zarurligi davr talabi bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: Ma'naviy madaniyat, xukukiy asoslar, ma'naviy me'yorlar, ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy faoliyat.

O'zbekiston jadal suratlarda jahon retinglari qatoriga intilayotgan bir paytda davlat va jamiyatning barcha sohalarida bulgani kabi ta'lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kun talablariga ko'ra yoshlarning ma'naviy-madaniyatini va ularda insoniylik fazilatlarni shakllantirishning zarurligi tegishli hujjatlarda belgilab qo'yilmoqda.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:
ochiqlik va shaffoflik;
yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;
yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;
yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi

Jumladan, oliy ta'lim tizimida ham ana shunday jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilib, ilg'or xorijiy tajribalar asosida innovatsiya jarayonlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan aloqalar kengayib, ularning filiallari yurtimizda tashkil etilmoqda. O'quv, ilmiy, texnologik, innovatsion loyihalar kengaymoqda.

Bu borada, O'zbekistan Respublikasida joriy yilning «2022 yil «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili» yili deb e'lon qilinishi maqsadga muvofiqdir. Dastur asosida olib borilayotgan isloxotlarda ko'zda tutilgan asosiy maqsad hamda vazifalardan biri- jamiyatning kelajagi bo'lgan ma'naviy-ahloqiy tarbiyalangan, mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishdir. Mamlakatimiz istiqlolga erishib, o'z mustaqilligini mustahkamlash ozod va obod Vatan qurish yo'lida faol kurash olib borayotgan bir davrda, Vatanga fidoyi, sog'lom avlodni tarbiyalash vazifasi o'z dolzarbligini yana bir marta namoyon etdi. Ta'lim va fan sohasida rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishga harakat qilishimizda iqtidorli va iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ilm-fanga yo'naltirish va maqsadli tayyorlash dolzarb vazifalardan biriga aylanmog'i kerak.

Muhtaram birinchi prizidentimiz **I.A.Karimov o'z chiqishlaridan birida shunday degan edilar: «Azizlarim, Allox, taolo bergan sog'ligimizni asraylik! Chunki sog'lom odamgina chinakam bahtli bo'ladi, chunki faqatgina sog'lom xalq, sog'lom millat buyuk ishlarga qodir bo'ladi»1.** Demak, biz kelajakda buyuk ishlarni amalga oshirishimiz uchun, albatta, sog'lom farzand o'stirishimiz, ularni barkamol shaxs bo'lib yetishishi uchun astoydil farzand tarbiyasiga e'tibor qaratishimiz zarur. Bu esa o'z navbatida barchamizdan yoshlar tarbiyasiga yanada mas'ul bo'lishni, shaxsni shakllantirish jarayoniga alhida e'tibor bilan yondashishni taqazo etadi. Bunday shaxslar aqli, tafakkuri, mehnati, mas'uliyati bilan ongli ravishda o'z Vataniga xizmat qiladi.Har bir insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agarda ana shu ichki quvvat yuzaga chiqarilsa, undan jamiyat ravnaqi yo'lida foydalanilsa, shaxs tafakkuri turli aqida va tushunchalardan xalos bo'lib, inson o'zining bu dunyodagi vazifasini

to‘liq anglab, ongli ravishda jamiyat manfaatiga xizmat qiladi va uning ravnaqiga o‘z xissasini qo‘shadi. Aynan yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni Vatan manfaati yo‘lida fidoyi insonlar, intellektual saloxiyatli kadrlar qilib tarbiyalash orqali, olib borilayotgan isloxotlar jarayonida yoshlarning keng ko‘lamda, ongli ravishda qatnashuvini ta’minlash USTOZLAR zimmasidadir. Jamiyatimizning har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati aholining, ayniqsa yosh avlodning aqliy, axloqiy, huquqiy bilimi, tarbiyasi, jismoniy sog‘lomligi, estetik madaniyati va ma’naviyatining yuksak darajada shakllanganligiga bog‘liq. Yoshlarimizning har tomonlama kamolga yetishi, ma’naviyatli barkamol shaxs sifatida shakllanishi hamda ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari bevosita, ularga beriladigan maqsadli va to‘g‘ri g‘oyaviy ta’lim- tarbiyaga asoslanadi. Shaxs bo‘lish uchun odam albatta, tarbiyalanishi kerak. Ta’lim-tarbiyasiz, hayotdagi yaxshilik va yomonlikni bilmasdan, ularni farqlamasdan turib, odamning shaxs bo‘lib shakllanishi mumkin emas. Ta’lim-tarbiya, yaxshi-yomonning farqiga boradigan darajaga yetishish esa uzoq vaqt talab qilishi, hatto, insonning umri oxiriga qadar davom etishi mumkin. Demak, har qanday odamni ham, bu dunyoda bosh ko‘tarib yurgan hamma insonlarni ham shaxs deb atay olmaymiz. Bu nomga sazovor bo‘lishning o‘z talablari, mezon-o‘lchovlari bor. Bu talab-mezonlar ichida ma’naviy-ma’rifiy mezonlar muhim o‘rin egallaydi. Beixtiyor Yurtboshimizning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobidan quyidagi satrlar ko‘z o‘ngimizda jilolanadi:

“Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish –ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim».

Yurtboshimiz ota-onalar, ustoz va murabbiylarga «har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rish zarur»ligini uqtirmoqda. Butun ta’lim-tarbiya mana shu imkoniyatni ro‘yobga chiqarishga, jism-u jonimizda yashirinib yotgan shu qobiliyatni kashf qilib, uni takomillashtirishga qaratilmog‘i lozim. Boshqacha aytganda, har bir inson tug‘ilishidanoq tayyor shaxs bo‘lmaydi. Erkin va mustaqil, chuqur va keng fikrlash, hamma narsa to‘g‘risida xolis mushohada yuritish, hayotda ongli turmush kechirish esa insonni komillik – mukammallikka elitadi.

Davlatimiz tomonidan barcha yoshlarga katta e’tibor berilmoqda. Mamlakatimiz yoshlarga ko‘rsatayotgan bu kabi g‘amxo‘rliklar, avvalo Respublikamizda vujudga kelgan iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy-mafkuraviy muhitning sog‘lomlashuvi, milliy hayot tarzi va milliy fikrlash tarzining tiklanishiga, yoshlarga esa burch va mas’uliyat hissini oshishiga asos bo‘lmoqda. Yurtimizning ertangi kuniga ishonch bildirayotgan, ayniqsa, uning kelajagi uchun tinmay o‘qib izlanayotgan iqtidorli talabalarimiz, iste’dodli yoshlarimizda, ijtimoiy kayfiyat, milliy urf-odat va an’analarga bo‘lgan munosabatlarining yuksak darajada shakllanishi jamiyatimizning kelajakdagi ravnaqini ta’minlaydi.

Dunyoda narsa va hodisalarning son-sanog‘i yo‘q. U to‘g‘risida har bir fan o‘zining ilmiy qarashlarini ilgari suradi. Ilmning bo‘lsa, chek-u chegarasi yo‘q. Ya’ni, narsa va hodisalar mohiyatini o‘rganish mangu davom etaveradi. O‘z fikriga, shaxsiy qarashiga ega bo‘lmagan,aytayotgan gapi yoki qilayotgan ishi uchun javob berish mas’uliyatini his qilmaydigan odam shaxs degan yuksak mavqega ko‘tarila olmaydi. Ana shunday odamlar to‘planib «olomon»ni, «to‘da»ni hosil qiladi. Har qanday mamlakat va uni ichdan buzmoqchi bo‘lgan yovuz niyatli kuchlar aynan shu olomon to‘dani hosil qilishni, uning vayronkor kuchidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishni o‘ylashadi. Ular kishilarni mustaqil, erkin fikrlashda

chalg‘itadigan o‘zlarining buzg‘unchi g‘oyalarini, mafkuralarini tiqishtirishadi, o‘z domiga tushgan yoshlarni, hatto, boshqacha o‘ylamasligi o‘ziga o‘rgatilgan aqidalardan chetga chiqmaslikka qasam ham ichirishadi. Soxta «ommaviy madaniyat» targ‘ibotchilarining niyati ham shunga o‘xshash. Ular insonning hayvoniy his-tuyg‘ularini qo‘zg‘atuvchi tomoshalari kuchi va ta’siri bilan jamiyatda shaxslarni yo‘q qilib, odamlarni hech narsa to‘g‘risida jiddiy o‘ylamaydigan, nimani eshitsa yoki ko‘rsa, shuni ortidan ko‘r-ko‘rona ergashib ketaveradigan olomonga aylantirishni istaydilar. Har ikki harakat ham, oxir-oqibatda, xalq, millat ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatish, uning taqdiriga egalik qilish, boyliklarini talash va yovuz niyatlarni ko‘zlaydi. Demak, har birimiz har qanday narsa va hodisa to‘g‘risida o‘zimizning mustaqil fikrimizga ega bo‘lishimiz, uni himoya qila olishimiz bizni ko‘plab yomonliklardan asrab qoladi. Shundagina biz turli buzg‘unchi fikrlar, g‘oyalar ta’siriga tushib qolmaymiz, vayronkorlikka da’vat etuvchi kimsalar ortidan ergashmaymiz. O‘zligimizni, milliyligimizni, kelajagimizni saqlab qolamiz. Erkin va mustaqil, chuqur va keng fikrlash o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Buning uchun odam ko‘plab bilimlarni o‘zlashtirishi aql-u idrokini boyitishi, ko‘nikma va tajribalar orttirishi talab etiladi. Ezgu fazilatlar esa ko‘cha-ko‘yda emas, balki ma’rifat dargohlarida – ta’lim-tarbiya o‘choqlarida o‘zlashtiriladi.

Yurtboshimiz yana bir muhim qoidani ta’kidlaydilar***: “Ta’limni tarbiyadan tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir”.*** Mazkur qarashga, chinakam hayot falsafasiga amal qilibgina jamiyatda komil insonni voyaga yetkazishi mumkin. Bizning xalqimiz ilmli, ko‘p narsani biladigan kishilarni nihoyatda hurmat qiladi, qadrlaydi. Bunday kishilarga mahalla-ko‘yda ham, mehnat jamoalarida ham, yor-u do‘stlar orasida ham alohida e’tibor, diqqat qaratiladi. Lekin faqat bitta shart bilan: agar o‘sha bilimli, ko‘p narsani biladigan kishi, avvalo, insongarchilikni ham bilsa, olgan ta’limi tarbiyasiga mos kelsa, aytayotgan gapi bilan qilayotgan ishi o‘rtasida tafovut, ziddiyat bo‘lmasa. Eng muhimi – o‘sha odam faqat olim bo‘lishninggina emas, odam bo‘lish ilmini ham mukammal egallagan, boshqalarga hurmat va e’zoz ko‘rsatish tajribasini ham o‘zlashtirgan bo‘lsa. Ma’naviyatli yoshlar o‘z Vatanini, xalqini sevish va ularni e’zozlash, o‘tmish ajdodlari tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyatni bilish va u bilan faxrlanish tuyg‘usi hamda ularni asrab avaylash muhim vazifa ekanligini anglab yetdi. Albatta, ana shu vazifalarni amalga oshirishda murabbiy, o‘kituvchilarning talaba yoshlar bilan olib borayotgan uzluksiz ta’lim-tarbiyaviy ishlari yaxshi natija bermokda.

Xulosa o‘rni ta’kidlash joizki, Milliy tarkibni rivojlantirish, davlat tilidagi ta’lim, ilmiy-ma’rifiy, yoshlar ehtiyojlariga mos zamonaviy axborot resurslarini, multimedia mahsulotlarini yaratish va targ‘ib qilish, mobil internet foydalanuvchilariga mo‘ljallangan, yoshlarga yuksak odob-ahloqiy tarbiyani berishi ularni intelektual salohiyati va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan milliy o‘yinlarni tashkil etishda, yosh ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, farzand tarbiyasi borasidagi burch va ma’suliyatini oshirish, mustahkam mafkuraviy immunitetga ega yoshlarni tarbiyalash, notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo‘lmagan, “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-xarakatlarini nazoratga olishda ota-onalarning ma’suliyatini oshirish, kashandalik, alkagolli ichimliklar iste’mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasiga oid tadbirlarni tashkil qilish har bir-imizning maqsad va vazifalarimizdan biriga aylanishi, “jismoniy sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” ga qaratilishi zarur. Bunda oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.T.: Ma’naviyat, 2008.-B.125-126.
2. Pedagogika. S.P.Baranov, L.R.Bolotina, V.A.Slastenin. Toshkent “O‘qituvchi” 1990 y.
3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas’ulmiz. T.: «Uzbekiston», 2001